

O'zbekiston – ona yurtim



Biz baland tog'lar, daryolar, cho'llar va qadimiy shaharlarga ega bo'lgan, boy tabiatli go'zal mamlakat – **O'zbekistonda** yashaymiz. Keling, birgalikda ona diyorumiz haqida ko'proq bilib olaylik!



O'zbekiston qayerda joylashganligini bilasizmi?




O'zbekiston Yevrosiyo materigining **Markaziy Osiyo** qismida joylashgan.

O'zbekiston beshta davlat bilan chegaradosh:

- shimol va g'arbda – **Qozog'iston** bilan;
- janubda – **Turkmaniston** va **Afg'oniston** bilan;
- sharqda – **Tojikiston** va **Qirg'iziston** bilan.




O'zbekiston **12 ta viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi** va **Toshkent shahridan** tashkil topgan. Har bir viloyat o'ziga xos o'ringa ega.





- 8 Sirdaryo viloyati
- 9 Toshkent viloyati
- 10 Farg'ona viloyati
- 11 Namangan viloyati
- 12 Andijon viloyati
-  Toshkent shahri
-  Qoraqalpog'iston Respublikasi




Toshkent – O‘zbekiston Respublikasi poytaxti. U katta, chiroyli va zamonaviy shahar. Toshkent **2000 yildan ortiq** boy tarixga ega. U yerda ko‘plab baland binolar, shinam bog‘lar va odamlar bilan gavjum bozorlar bor.

Toshkentda botanika va hayvonot bog‘lari, ko‘plab qiziqarli maskanlar, shuningdek, milliy va zamonaviy uslubda qurilgan masjid va muzeylar bor. Ulardan mamlakatimiz tarixi va madaniyati haqida ko‘plab yangi ma’lumotlar olish mumkin.


Poytaxtda bir necha yo‘nalishli metro mavjud. Uning bekatlari mozaika va rasmlar bilan o‘ziga xos uslubda bezatilgan. Har bir bekat go‘yo kichik muzeyga o‘xshaydi.



metro bekat



Toshkent kuranti




Temuriyalar tarixi davlat muzeyi




Ona diyorimizdagi sevimli go'shalar haqida so'zlab bering.

Samarqand – qariyb **3000** yillik tarixga ega qadimiy shahar. Samarqand mamlakatning asosiy turistik markazlaridan biridir. **Registon maydoni, Go'ri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi, Shohi Zinda majmuasi** kabilar Samarqandning diqqatga sazovor joylaridir.



Registon maydoni

Buxoro – qadimiy me'morchiligi bilan dunyoga mashhur ko'p asrlik tarixga ega shahar. Buxoroda **Ark qal'asi, Ulug'bek madrasasi, Minorai Kalon, masjidlar, karvonsaroylar** va boshqa ko'plab tarixiy yodgorliklar mavjud.



Minorai Kalon

Xiva – qal’a devori bilan o’ralgan ochiq osmon ostidagi qadimiy muzey-shahar. Xiva Amudaryo sohilidagi ikki cho’l – Qizilqum va Qoraqum cho’llari kesishgan hududda joylashgan bo’lib, u O’zbekistonning durdonasi hisoblanadi. Qadimda bu yerdan **Buyuk Ipak yo’li** o’tgan.



Ichan qal’a

Namangan, Andijon, Farg’ona o’zining an’analari va hunarmandchiligi, tarixiy yodgorliklari, go’zal tabiati, bog’lari va saylgohlari bilan mashhur **Farg’ona vodiysidagi shaharlardir.**



Namangan. Gullar festivali

Nukus – Qoraqalpog‘iston Respublikasining poytaxti. Shahar Amudaryoning o‘ng sohilida joylashgan, Qizilqum cho‘li bilan chegaradosh.



*I. V. Savitskiy nomidagi Davlat san‘at muzeyi**

*Igor Vitalyevich Savitskiy (1915–1984) – rassom, kolleksioner, Nukusdagi san‘at muzeyi asoschisi.



O‘zbekistonning qaysi shahriga borishni xohlaysiz?
Nima uchun?



1. O‘zbekiston qaysi materikda joylashgan?
2. Vatanimiz qaysi davlatlar bilan chegaradosh?
3. Mamlakatimiz qanday qismlardan tashkil topgan?
4. O‘zbekiston shaharlari haqida nimalarni bilasiz?



O‘zingiz yashaydigan shahar (qishloq) haqida ma‘lumot tayyorlang.

